

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

SULTANOV OG‘ABEK SULTAN O‘G‘LI

**TALABA-YOSHLARDA IJTIMOIIY MAS‘ULIYAT TUSHUNCHASINI
SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIIY-FALSAFIY ASOSLARI**

09.00.04 – Ijtimoiyfalsafa

**FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Buxoro-2025

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
philosophical sciences**

Sultanov Og‘abek Sultan o‘g‘li

Talaba yoshlarda ijtimoiy mas’uliyat tushunchasini shakllantirishning
ijtimoiy-falsafiy asoslari5

Султанов Огабек Султан угли

Социально-философские основы формирования понятия социальной
ответственности у студенческой молодежи.....23

SultanovOgabek Sultan ugli

Socio-philosophical foundations of shaping the concept of social responsibility
among young students47

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of works published.....52

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

SULTANOV OG‘ABEK SULTAN O‘G‘LI

**TALABA-YOSHLARDA IJTIMOIIY MAS'ULIYAT TUSHUNCHASINI
SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIIY-FALSAFIY ASOSLARI**

09.00.04 – Ijtimoiyfalsafa

Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi

AVTOREFERATI

Buxoro-2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/Fal1427 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Adilov Zafar Yunusovich

falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Xuseynova Abira Amanovna

falsafa fanlari doktori, professor

Norqobilov Muzaffar Jumayevich

falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Navoiy davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/27.02.2020.F.72.08 raqamli ilmiy kengashning 2025 yil "31" oktyabr soat 16.00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-29-14; faks: (65) 221-57-27, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (740 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "13" oktyabr kuni tarqatildi.

(2025 yil "13" oktyabr dagi 38 raqamli reyestr bayonnomasi.)



Namozov B.B.

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

Sharipov A.Z.

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
falsafa fanlari doktori, professor

Safarova N.O.

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda integratsiya jarayonlari va “mas’uliyat inqirozi” sharoitida jamiyatda adolat, tenglik, sog‘lom raqobat va halollik kabi tamoyillarni yoshlar ongiga singdirish, ma’naviy immunitetni shakllantirishga qaratilgan zamonaviy ta’lim va tarbiya jarayonlarida universal axloqiy-ma’naviy mezonlarni qo‘llash talab etilmoqda. Bu borada insonni ma’naviy-axloqiy jihatdan yuksaltirish, raqamli makonning axloqiy tartibotlarini belgilash, ijtimoiy ishonchni shakllantirish, shartnoma madaniyati, akademik halollik, shaxsiy intizomni yadro kompetensiyaga aylantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuning uchun jamiyat oldidagi majburiyatlar va talaba-yoshlarning ijtimoiy mas’uliyatni oshirishning nazariy-metodologik asoslarini, uni rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali yondashuvlar hamda sifatlarning shakllanish mexanizmlarini ochib berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon ilm-fani va yetakchi ilmiy markazlarida ijtimoiy mas’uliyat, fuqarolik mas’uliyati, axloqiy mas’uliyat kabi kategoriya va subkategoriyalarni aniq delimitatsiya qilish, mavjud shkala va indekslni kontekstual asoslashga oid tadqiqotlar olib borilmoqda. Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda talaba-yoshlarning fuqarolik jamiyatida faollashishiga va jamiyatning barqaror rivojlanishiga hissa qo‘shishga jalb etish, shu orqali demokratik jarayonlar va fuqarolik boshqaruvi tizimini mustahkamlashni talab qiladi. Shu bois ta’lim tizimida o‘quv jarayonining axloqiy qonun-qoidalarga rioya qilish ko‘nikmalarini shakllantirish, insoniy fazilatlarni rivojlantirish hamda mas’uliyatli va intizomli yosh kadrlarni tayyorlash tizimini o‘ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish zarurati tobora ortib bormoqda.

O‘zbekistonda “Yangi O‘zbekiston – ma’rifatli jamiyat” konsepsiyasi asosida yoshlarning intellektual salohiyati va dunyoqarashini yuksaltirish, vatanparvarlik, xalqqa muhabbat va sadoqat tuyg‘usi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalashga oid islohotlar olib borilib, yoshlarga oid davlat siyosatining maqsadi yoshlarni ijtimoiylashtirish va salohiyatini rivojlantirish etib belgilandi. “Yaqin kelajakka mo‘ljallangan taraqqiyot yo‘limizda dasturilamal vazifasini o‘taydigan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida ham xalqimizning taklif va istaklari asosida ta’lim tizimini yanada ravnaq toptirish bo‘yicha ulkan rejalar belgilab olingan. Ana shu ustuvor vazifalarni ro‘yobga chiqarish, ona Vatanimizning kelajagi uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir bo‘lgan yangi avlodni tarbiyalash barchamizdan katta kuch-g‘ayrat va azmu shijoat bilan mehnat qilishni talab etadi. Biz, avvalambor, tashabbuskor islohotchi sifatida maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, katta bilim va malakaga ega bo‘lgan yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur”¹. Shunday ekan, Yangi O‘zbekistonda intellektual salohiyati yuqori, innovatsion fikrlashga qodir, mas’uliyatli va intizomli yosh kadrlarni tayyorlash hamda talabalarda axloqiy mezonlarga sodiqlik va milliy qadriyatlarga hurmat ruhini shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy asoslarini ochib berish muhim ahamiyatga bo‘lib bormoqda.

¹Мирзиёев Ш.М. Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон. –Тошкент: “O‘zbekiston”, 2024. –Б.71.

Mazkur dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentyabrdagi O‘RQ-406-son “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”, 2020-yil 23-sentyabrdagi O‘RQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risida” qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2019 yil 9 yanvardagi PF-5618-son “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-sonli “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-son “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 18-yanvardagi 23-son “O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” qarorlari hamda sohaga oid boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatning ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Talaba-yoshlarda ijtimoiy mas’uliyat tushunchasini shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy asoslari bugungi kun dunyo talim-tizimining muhim masalalaridan biri bo‘lib, mas’uliyat va ijtimoiy mas’uliyatga doir ilk qarashlar Sharq va G‘arb olimlarning tadqiqot va qarashlarida o‘z aksini topgan. Ular orasida Aflotun, Aristotel, Abu Nasr Farobiy, Beruniy, Imom Al-Buxoriy, Kaykovus, Amir Temur, Alisher Navoiy, Frensis Bekon, Jon Lokk, J.Boden, T.Gobbs va J.J.Russo, R.Dekart, Gegel, I.Kant, L.Golbax, J.P.Sartr, S.Xantington, K.Yaspers B.Spinoza, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy² va boshqa allomalarning tadqiqot va qarashlari diqqatga sazovor.

²Афлотун. Қонунлар. –Тошкент: “Янги аср авлоди”, 2002. – Б.45., Арасту. Поэтика.Ахлоқи кабир. Риторика.- Тошкент: “Янги аср”,2011.-Б.179., Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. –Тошкент: “Янги аср авлоди”, 2001. –Б. 222., **Абу Райхон** Беруний. Танланганасарлар. I том. –Тошкент: “Фан, 1968.-Б.458., **АБУ РАЙХОН**Беруний. Танланганасарлар. I том. –Тошкент: “Фан”, 1968.-Б.458., Имом Исмоил ал-Бухорий. Ал-адаб ул-муфрад. –Тошкент: “Нилol nashr”, 2008.-Б.10., Кайковус. Қобуснома. Нашрга тайёрловчи С.Долимов. -Тошкент: “Ўқитувчи”, 1986.-Б.46., Темур тузуклари // форсчадан А.Соғуний ва Ҳ.Кароматов тарж. - Тошкент: “Нашриёт-матбаа бирлашмаси”, 1991., Алишер Навоий. Махбуб ул-қулуб / Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. 14-жилд. –Тошкент: “Фан”, 1998. -Б.69., Жиль Д. Фрэнсис Бэкон: логика ощущения. – Сеул: Мачине, 2011. – С.176., Локк. Дж. Сочинения в трех томах: Т.1. – Москва, 1988. – С. 688., Jean Bodin. On Sovereignty. -New York: “Cambridge university press”, 1992.-P.110., Гоббс Т. Сочинения. в 2 -Москва: “Мысль”, 1989, С.-79., Jean-Jacques Rousseau.The Social Contract.-New York: “Vail-Ballou press”,2002.-P.28., Jean-Jacques Rousseau. The Social Contract.-New York: “Vail-Ballou press”, 2002.-P.28., Rene Descartes. Principles of Philosophy. Copyright Jonathan Bennett. Cambridge University Press. 2017., Dudley Knowles. Hegel and the philosophy of right. –London: “Routledge”, 2002. –P.286., Kant. Duty and Moral Worth. - The

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarida mas'uliyat va ijtimoiy mas'uliyatga doir qarashlar A.G.Asmolov, A.G.Afanasyev, L.S.Vigotskiy, V.V.Davidov, T.F.Ivanov va N.I.Skorbilina³ kabi olimlarning tadqiqot va izlanishlarida ijtimoiy mas'uliyat tushunchasi va uning jamiyat a'zolariga tadbiqui masalasini alohida tadqiq etib o'rgananlar.

Mamlakatimiz olimlaridan Q.Nazarov, I.Saifnazarov, S.Mamashokirov, I.Ergashev, F.Mamadaliyeva, F.Yusupova, N.Sagindikova, B.Namozov, G.Navro'zova, N. Safarova, E. Zoyirov, A.Xuseynova talaba yoshlar mas'uliyatini o'rganishlari natijasida shaxsning ma'naviy kamoloti rivoji, ulardagi mas'uliyat kabi fazilatlarining turli ijtimoiy-falsafiy ko'rinishlarini tahlil qilish borasida ham e'tiborga molik izlanishlar olib borishgan⁴. Mazkur tadqiqotlarda asosiy e'tibor yoshlar fazilatlarini va ularning namoyon bo'lish xususiyatlarida mas'uliyat, shuningdek, milliy manfaatlar, ma'naviy o'zgarish va yangilanishlarning shaxs mas'uliyati bilan bog'liq jihatlariga e'tibor qaratilgan. Hozirgi vaqtda talaba yoshlar ijtimoiy mas'uliyatini shakllantirish mavzusi bugungi davrning ehtiyojlaridan kelib chiqib, yanada tizimli va qizg'in o'rganila boshlandi.

Yuqorida zikr etilgan olimlar tomonidan talaba yoshlar ijtimoiy mas'uliyatini shakllantirishda yosh avlodlarni ma'naviy barkamollik g'oylari asosida tarbiylash, ularning umuminsoniy qadriyatlarga va milliy qadriyatlarga sodiqlik ruhida shakllantirish, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, topqirlik, millatparvarlik haqidagi g'oyalar yetarlicha o'rganilmagan. Shu sababli ushbu dissertatsiyada talaba yoshlar ijtimoiy mas'uliyatining axloqiy kategoriylar bilan o'zaro bog'liq jihatlarini ochib berishga, inson erkinligi, vijdonlilik, qat'iyatlilik, bag'rikenglik kabi

USA: Routledge Taylor& Francis group, 2005., Поль Анри Гольбах. Избранные произведения в двух томах. Том 1. – Москва: 1963.-Б.563., Сартр Ж.П. Экзистенциализм - это гуманизм / Пер. с фр. М.Грецкого. – Москва: “Издательство иностранной литературы”, 1953. –С. 42., Хантингтон С. Демократизация в конце XX века. –Москва: “РОССПЭН”, 2003. –С. 27., Karl Jaspers. Waytowisdom. -NewHaven: “Yale university press”,1960.-Р.73, Спиноза Б. Этика.-Москва: “АСТ”, 2001.-С.72., Abdurauf Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari, -Toshkent: “Cho'lpon”, 2013. -В.112., Абдулла Авлоний. Туркий Гулистон ёхуд ахлоқ. -Тошкент: “Тар. Сотс. Револотс”, 1917.-Б.5.

³Асмолов А.Г. Деятельность и установка. -М., 1979. –С.151; Афанасьев В.Г. Человек в управлении обществом. -М., 1988.-С.279., Выготский Л.С. Педагогическая психология/ Под ред. В.В. Давыдова.- М., 1999. –С.536. Давыдов Н.А. Дидактическое проектирование современной подготовки специалистов в высшей и высшей военной школе. - М., 2004. –С.288. Иванов В.Г., Гурье Л.И. Педагогическая деятельность: проблемы, сложности // Высшее образование в России. 1997. –№4. -С.44-49., Скорбилина П.И. Ответственность как стержневое качество личности старшеклассника: сущность, функции, структура // Психологические условия формирования социальной ответственности школьников. - М., 1987. –С.48-51.

⁴Назаров Қ. Жаҳон фалсафаси қомуси. 1-қитоб. –Тошкент: “Маънавият”, 2023.-Б.720., И.Саифназаров. Ёшлар ва оила -Ватан таянчи. - Тошкент: “Та'лим nashriyoti”, 2018.-Б.39., Мамашакиров С. Экологик фаоллик ва масъулиятни шакллантиришда ижтимоий-сиёсий омилларнинг роли: Фалс. фан. док...дис. - Тошкент: ЎзМУ,1997. –Б.190., Ергашев И. Шахс маънавий камолатида эркинлик ва ижтимоий масъулият уйғунлиги: Фал.фан. бўй.фалс. док. (PhD)...дис. – Тошкент: “ЎзМУ”, 2011. –Б.66., Ф.Мамадалиева. Исломий қадриятларда шахс масъулияти муаммоси: Фал.фан. бўй.фалс. док. (PhD)...дис. – Тошкент: “ТДПУ”, 2020. –Б.72-74., F.Yusupova. Yoshlarda axloqiy tafakkurni rivojlantirishda idealning konstruktiv ahamiyati: Fal. fan. bo'y. fal. dok (PhD)...dis. avtoref: –Samarqand: SamDU, 2024. –Б.18., Сагиндикова Н. Талабалар ўқув фаолиятида масъулиятнинг гендер хусусиятлари: Психо.фан. бўй.фалс. док. (PhD)...дис. – Тошкент: “ТДПУ”, 2020. –Б.190., Намозов Б. Муҳаммад Порсонинг фалсафий таълимоти. Монография. - Тошкент: “Мумтоз”, 2015. –Б.176., Наврўзова Г. Хожа Баҳоуддин Нақшбанд ҳаёти ва маънавий мероси. -Тошкент: “Фан”, 2021. –Б.240., Сафарова Н. Хожагон тасаввуфий таълимотида маънавий-ахлоқий қадриятлар масаласи Фал.фан. бўй.фалс. док. (PhD)...дис. –Т., 2002. –Б.152., Zoyirov E. Ya'qub Charxiyning falsafiy va ijtimoiy-siyosiy qarashlari: Fal. fan. dok (DSc)...dis. avtoref: –Buxoro: “BuxDU”, 2023. –Б.76., Хусейнова А. Шарқ мутафаккирлари дунёқарашида умуминсоний қадриятлари. -Бухоро: “Дурдона”, 2017.-Б.140.

insonparvarlikka oid, donolik, tanqidiy fikrlash, matonat kabi intellektual fazilatlarga doir g'oyalarning ijtimoiy ahamiyatini o'rganishga alohida e'tibor qaratilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq II band "Yangi O'zbekistonda ma'rifatparvar davlat barpo etishning ijtimoiy-falsafiy va ma'naviy-axloqiy asoslarini takomillashtirish muammolari" (2022-2026 yy.) tadqiqot yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi zamonaviy O'zbekiston sharoitida talaba-yoshlar ijtimoiy mas'uliyatini rivojlantirishning ahamiyatini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ijtimoiy mas'uliyat tushunchasining mazmuni, mohiyati va falsafiy jihatlarini tadqiq qilish;

talaba-yoshlar ijtimoiy mas'uliyatni oshirishning zaruriyati va imkoniyatlarini asoslash;

Sharq va G'arb allomalarining yoshlar mas'uliyatga doir qarashlarini taqqoslash va mohiyatini ochib berish;

yoshlarda mas'uliyat hissini rivojlantirishning ijtimoiy-gnoseologik asoslarini tahlil etish;

O'zbekistonda talaba-yoshlar ijtimoiy mas'uliyatni oshirishda Uchinchi Renessans g'oyasining ijtimoiy-falsafiy ahamiyatini asoslab berish;

"Yangi O'zbekiston – ma'rifatli jamiyat" konsepsiyasi asosida talaba-yoshlarda ijtimoiy mas'uliyat hissini rivojlantirishga oid taklif-tavsiyalarishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida ta'lim tizimida talaba-yoshlarda ijtimoiy mas'uliyatning shakllanish jarayoni tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini yoshlar ijtimoiy mas'uliyatini rivojlantirishning ma'naviy xususiyatlarini hamda milliy mentalitet bilan aloqador tomonlarini, ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy asoslarini tadqiq etish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada analiz va sintez, kompleks yondashuv, tizimli-funksional yondashuv, kontent analiz, retrospektiv tahlil, dialektik, sinergetik, qiyosiy tahlil, so'rovnoma kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

talaba-yoshlar ijtimoiy mas'uliyatni oshirishning falsafiy (qadriyatlar), normativ (qonun va qoidalar), amaliy tajriba (xatti-harakat va ijtimoiy loyiha), psixologik (o'z-o'zini baholash, oshkoralik) kabi nazariy-metodologik asoslariga tayanib uni rivojlantirishga xizmat qiluvchi ta'lim va tarbiya hamda mustaqil fikrlash, tashabbuskorlik va jamoada faol ishtirok etish kabi sifatlarning shakllanish mexanizmlari asoslab berilgan;

Sharq (Forobiyning "fozil shahar", Ibn Sinoning axloqiy kamolot, Navoiyning "komil inson", G'azzoliyning nafs tarbiyasi) va G'arb (Arastuning fazilat, Kantning burch va avtonomiya, Millning umumfoyda va "zarar keltirmaslik",

Dyurkgeymning axloqiy tarbiya) allomalarining qarashlari asosida ta'lim tizimida ijtimoiy mas'uliyatning axloqiy asoslarini o'rgatish, qonunga itoatkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, gumanistik fazilatlarni (halollik, adolat, bag'rikenglik, mas'uliyat, xizmatga tayyorlik) rivojlantirish vazifalari ochib berilgan;

Yangi O'zbekistonda talaba-yoshlar ijtimoiy mas'uliyatini shakllantirish tizimining intellektual salohiyati yuqori kadrlarni tayyorlash, innovatsion fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish, qat'iy tartib va intizomni shakllantirish kabi ustuvor yo'nalishlari hamda erkinlik va mas'uliyat dialektikasi, shaxsiy manfaat - ijtimoiy manfaat uyg'unligi, intizom, tashabbus, jamoaviylik kabi xususiyatlari aniqlashtirilgan;

“Yangi O'zbekiston – ma'rifatli jamiyat” konsepsiyasining yoshlarda mas'uliyatni idrok etish, axloqiy mezonlarga rioya etish va milliy qadriyatlarga sodiqlik, rostgo'ylik, mustaqil fikrlash, insonparvarlik kabi jihatlari ijtimoiy mas'uliyatni “bilim–axloq–mas'uliyat” triadasi va “qadriyat → meyor → amaliyot → refleksiya” zanjiri asosida rivojlantirishi hamda mustaqil fikrlash, tashabbuskorlik va jamoada faol ishtirok etish kabi shakllarda namoyon bo'lishini ta'minlashi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

talaba-yoshlar ijtimoiy mas'uliyatining falsafiy xususiyatlari “qilish kerak” (prakseologik), “mavjudlik” (ontologik) va “bilish” (gnoseologik) ijtimoiy faollikka olib kelishi, mas'uliyat majburiyatdan ko'ra yuqori bo'lgan, ichki xohish bilan farovonlik uchun harakat qilish, sotsiokommunikativ fazilatga aylanishi hamda kelajakdagi kasbiy muvaffaqiyatga erishish kaliti ekanligi asoslab berilgan;

talaba-yoshlarning ijtimoiy mas'uliyati doirasida amalga oshirilgan faoliyati tanqidiy fikrlash, hamkorlik qilish va muammolarni hal qilishda kreativlik kabi kompetensiyalarga asoslanishi va jamiyatdagi adolat, boshqalarga yordam, halollik kabi vazifalari professional tayyorgarligini oshirishi, ijtimoiy kapitalni mustahkamlashi dalillangan;

jamiyatni yuqori bosqichga ko'tarish jarayonida talaba-yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish strategik investitsiya (inson kapitalini rivojlantirish orqali jamiyatning barqaror taraqqiyotini ta'minlash), innovatsion taraqqiyot drayveri (yangi g'oyalar, ijodiy yondashuvlar va texnologik yechimlar tashuvchisi) sifatida davlat siyosatining asosiy yo'nalishi ekanligi isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot jarayonida qo'llanilgan nazariy qarashlar, tadqiqot usullari va yondashuvlar rasmiy manbalar, faktlar, statistik ma'lumotlarga murojaat qilingan holda olinganligi, tushuncha definitsiyasi ilmiy tadqiqot metodologiyasi va mantiq talablariga amal qilgan holda ishlab chiqilganligi, nashr etilgan ilmiy maqolalar, respublika va xalqaro konferensiyalarda sinovdan o'tkazilganligi, tadqiqot ishi natijalari bo'yicha berilgan xulosalar asosida takliflar ishlab chiqilib, tavsiyalar amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati talaba-yoshlarda ijtimoiy mas'uliyat tushunchasini falsafiy-

kategoriyaviy darajada aniqlash, uning “qadriyat → meyor → amaliyot → refleksiya” zanjiriga tayangan modelini ishlab chiqish orqali javobgarlik hissini talqin qilishda, talaba mas’uliyatining fuqaroviy, akademik, raqamli, ekologik, mehnat kabi shakllarini kontseptual tahlil etishda, mas’uliyat shakllanishining tipologiyasi va bosqichlarini rekonstruksiya qilish, shuningdek institutsional indikatorlar tizimi hamda baholash shkalalarini ishlab chiqishga qaratilgan ijtimoiy-falsafiy izlanishlar uchun nazariy-metodologik asos sifatida hamda mas’uliyatni shakllantirishning normativ-institutsional asoslarini ishlab chiqilishida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ulardan ta’lim muassasalarida elektiv kurslar tashkil etish, axloqiy javobgarlik madaniyatini oshirishda, “raqamli tarbiya” dasturi ishlab chiqishda, mahalla, OAV va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda targ’ibot olib borish, yoshlar ittifoqi, “Ijod” markazlari, NNTlar tomonidan “tarbiyaviy videokontentlar tayyorlashda, ta’lim muhitida “mas’uliyat ekotizimi”ni barpo etishda, akademik halollik kodeksi, raqamli etika qoidalarini ishlab chiqish, oila–ta’lim–jamiyat bo‘g‘inlarini yagona maqsadga yo‘naltirish, hamkorlik tarmoqlarini barqarorlash – volontyorlik, ekologik harakatlar, fuqarolik loyihalarida ishtirokni faollashtirish, shuningdek, ma’rifat soatlari, “Falsafa”, “Medisavodxonlik va axborot madaniyati” kabi fanlarni o‘qitishda, yosh avlodni tarbiyalash bo‘yicha profilaktik tadbirlar va ma’naviy targ’ibotda, madaniy-tarbiyaviy tadbirlar tashkil etish faoliyatida, ommaviy axborot vositalarining ko‘rsatuvlar va media materiallarini tayyorlash va talabalar bilan uyushtiriladigan davra suhbatlarida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Talaba yoshlarda ijtimoiy mas’uliyat tushunchasini shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy asoslarini ochib berishga oid olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

talaba-yoshlar ijtimoiy mas’uliyatni oshirishning falsafiy (qadriyatlar), normativ (qonun va qoidalar), amaliy tajriba (xatti-harakat va ijtimoiy loyiha), psixologik (o‘z-o‘zini baholash, oshkoralik) kabi nazariy-metodologik asoslariga tayanib uni rivojlantirishga xizmat qiluvchi ta’lim va tarbiya hamda mustaqil fikrlash, tashabbuskorlik va jamoada faol ishtirok etish kabi sifatlarning shakllanish mexanizmlariga doir ilmiy asoslangan taklif, tavsiyalardan “Xorazm” telekanalida 2024-yilning 20-yanvar va 16-martda efirga uzatilgan “Assalom Xorazm” dasturlarining ssenariylarini tayyorlashda foydanilgan (Xorazm viloyati teleradiokanali davlat muassasasining 2025-yil 19-martdagi 280-son ma’lumotnomasi). Natijada yoshlarda innovatsion fikrlash va kreativlik qobiliyatlarini shakllantirishga, mamlakatimiz yoshlariga ta’lim-tarbiya berish jarayoniga xizmat qilgan;

Sharq (Forobiyning “fozil shahar”, Ibn Sinoning axloqiy kamolot, Navoiyning “komil inson”, G‘azzoliyning nafs tarbiyasi) va G‘arb (Arastuning fazilat, Kantning burch va avtonomiya, Millning umumfoydada va “zarar keltirmaslik”, Dyurkgeymning axloqiy tarbiya) allomalarining qarashlari asosida ta’lim tizimida ijtimoiy mas’uliyatning axloqiy asoslarini o‘rgatish, qonunga itoatkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish, gumanistik fazilatlarni (halollik, adolat, bag‘rikenglik, mas’uliyat, xizmatga tayyorlik) rivojlantirish vazifalariga oid ilmiy

natijalardan “Umrboqiy meros” O‘zbekiston madaniyat va san’at targ‘ibot markazining O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi nodavlat-notijorat tashkilotlarni qo‘llab-quvvatlash jamoat fondining 2024-yil 14-maydagi 4/2024-son “Jadidlar hayoti yoshlarga ibrat” ilmiy loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan (“Umrboqiy meros” O‘zbekiston madaniyati va san’ati targ‘ibot markazining 2025-yil 16-maydagi MJ101/01-28-son ma’lumotnomasi). Natijada, rostgo‘y, mas’uliyatli va mustaqil fikrlaydigan shaxslarni tarbiyalash, “Yangi O‘zbekiston-ma’rifatli jamiyat” konsepsiyasining ijtimoiy, ilmiy-amaliy tomonlarining mazmunini boyitishga xizmat qilgan;

Yangi O‘zbekistonda talaba-yoshlar ijtimoiy mas’uliyatini shakllantirish tizimining intellektual salohiyati, yuqori kadrlarni tayyorlash, innovatsion fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, qat’iy tartib va intizomni shakllantirish kabi ustuvor yo‘nalishlari hamda erkinlik va mas’uliyat dialektikasi, shaxsiy manfaat - ijtimoiy manfaat uyg‘unligi, intizom, tashabbus, jamoaviylik kabi xususiyatlariga doir ilmiy xulosalar va yangiliklardan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining faoliyatida jumladan, 2024-yilda ma’naviy ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturining VII yo‘nalishida belgilangan “Uzluksiz ta’lim tizimida ma’naviy komillikka erishish va ma’rifatli yoshlarni tarbiyalashga doir chora-tadbirlar” 52-bandi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasida belgilangan maqsad va vazifalar asosida “Yangi kuch” ma’naviy-tarbiyaviy harakatlar dasturini ishlab chiqish” mavzusida targ‘ibot ishlarini tashkil etish va o‘tkazishda hamda Yoshlar ishlari Agentligining ijtimoiy loyihalarida foydalanilgan (Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar institutining 2025-yil 5-apreldagi 10/171-son hamda O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari Agentligining 2025-yil 7-apreldagi 2-15-21-1853-son ma’limotnomalari). Natijada, talaba-yoshlarda ijtimoiy mas’uliyat tushunchasini shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy jihatlarini tadqiq etishga hamda oila, mahalla, davlat va nodavlat tashkilotlari faoliyatini takomillashtirishga xizmat qilgan;

Yangi O‘zbekiston – ma’rifatli jamiyat” konsepsiyasining yoshlarda mas’uliyatni idrok etish, axloqiy mezonlarga rioya etish va milliy qadriyatlarga sodiqlik, rostgo‘ylik, mustaqil fikrlash, insonparvarlik kabi jihatlarini ijtimoiy mas’uliyatni “bilim–axloq–mas’uliyat” triadasi va “qadriyat → meyor → amaliyot → refleksiya” zanjiri asosida rivojlantirishi hamda mustaqil fikrlash, tashabbuskorlik va jamoada faol ishtirok etish kabi shakllarda namoyon bo‘lishiga oid ilmiy-nazariy xulosa va tavsiyalaridan O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasining 2025-2029-yillarga mo‘ljallangan saylovoldi dasturi 3.3. Partiyaning yoshlarga oid davlat siyosati bobida keltirilgan “I. Davlat hokimiyati va boshqaruvini yanada demokratlashtirish, ma’naviy barkamol fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari”da keltirilgan vazifalar ijrosini ta’minlashda foydalanilgan (O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi Markaziy kengashining 2025-yil 19-martdagi 02/02-25-son ma’lumotnomasi). Natijada, partiya xodimlarining ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy yo‘nalishdagi bilim va ko‘nikmalarini oshirish hamda mafkuraviy targ‘ibot ishlarining mazmunini boyitishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 11 ta jumladan, 4 ta xalqaro va 7 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 18 ta ilmiy ish, jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta ilmiy maqola (5 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnalda) nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 142 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **“Kirish”** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi tavsiflangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti, predmeti, tadqiqotda qo'llanilgan usullar yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan hamda dissertatsiya natijalarining joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e'lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Talaba-yoshlarning ijtimoiy mas'uliyatini rivojlantirishning nazariy va metodologik asoslari”** deb nomlangan bo'lib, bu bobda ijtimoiy mas'uliyat tushunchasining mazmuni va mohiyati, falsafiy jihatlar, erkinlik, javobgarlik va burch kabi kategoriyalar bilan bog'liqligi, shaxs va jamiyat o'rtasidagi mas'uliyatning ahamiyati ochib berilgan, shuningdek, yoshlar ijtimoiy mas'uliyatni oshirishning zarurati va imkoniyatlari asoslab berilgan.

O'zbek tilining izohli lug'atida mas'uliyat so'zi arabcha javobgarlik, hisob berishlik, biror ish, harakat natijasi uchun bo'lgan javobgarlik degan ma'noni anglatadi⁵. Mas'uliyat inson xatti-harakatlariga nisbatan odamlarning voqelikka nisbatan munosabatlari orqali ifodalanadi, bu munosabatlar ijobiy (maqtov, minnatdorchilik, hurmat, kechirim) yoki salbiy (g'azab, ranjish, norozilik) bo'lishi mumkinligi to'g'risidagi ma'lumotlar, boshqalarning xatti-harakatlariga shunday javob berish, ularning o'sha harakatlari uchun mas'ul ekanligini bildiradi. “Jahon falsafasi qomusi” lug'atida berilgan tasnif ilgarigi tasniflarni dialektik inkor etadi: “Mas'uliyat – ma'naviy, ijtimoiy va ma'muriy-huquqiy sohalarida keng qo'llaniladigan tushuncha; ma'naviyat nuqtayi nazaridan yondashilganda burch; ijtimoiy ma'noda jamiyat va boshqalar oldidagi ma'naviy qarzdorlik; ma'muriy jihatdan esa ijtimoiy tartibga solishning turli me'yorlarini amalga oshirishni nazarda tutuvchi jamoatchilik nazoratining namoyon bo'lishi; huquqiy yondashuvda esa asosan yuridik javobgarlikni anglatadigan serqirra va keng ma'noli kategoriya. Mas'uliyat muammosiga fanda azaldan erkinlik va zarurat

⁵Madvaliyev A., Xudayberganova D. O'zbek tilining izohli lug'ati. -Toshkent: “G'ofur G'ulom”, 2022. – B.128.

kategoriylarining o‘zaro nisbati, shaxs xulq-atvori va faoliyatining ma’naviy-axloqiy jihati nuqtayi nazaridan yondashib kelinadi”⁶.

Dissertatsiyada mas’uliyatning turlari keltirib o‘tilgan bo‘lib, ular quyidagilardan iborat⁷:

Siyosiy mas’uliyat – shaxsning davlat va jamiyat ravnaqi uchun faol ishtirok etishidir. Masalan, saylovlarda qatnashish, jamiyatdagi siyosiy jarayonlarga befarq bo‘lmaslik, fuqarolik pozitsiyasini aniq ifodalash siyosiy mas’uliyatning yorqin ko‘rinishlaridir.

Iqtisodiy mas’uliyat – ishlab chiqarish, tadbirkorlik va moliyaviy munosabatlarda qonun-qoidalarga amal qilish, iqtisodiy jinoyatlarga yo‘l qo‘ymaslikdir. Misol uchun, tadbirkor o‘z faoliyatini faqat foyda olishga emas, balki ishchilarning mehnat sharoitini yaxshilashga, ekologik talablarni bajarishga yo‘naltirsa, u iqtisodiy mas’uliyat namunasini ko‘rsatgan bo‘ladi.

Huquqiy javobgarlik – shaxsning o‘z xatti-harakatlarini amaldagi qonunchilikka muvofiqlashtirishi. Bu yerda nafaqat jinoyat sodir etmaslik, balki kundalik hayotda ham qonunga hurmat bilan qarash nazarda tutiladi. Masalan, yo‘l harakati qoidalariga amal qilish yoki davlat mulkiga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish huquqiy mas’uliyat ifodasidir.

Ma’naviy-axloqiy javobgarlik – jamiyat tomonidan qabul qilingan axloqiy me’yorlarga amal qilishdir. Masalan, keksalarga ko‘mak berish, bolalarga mehr-muhabbat ko‘rsatish, atrofdagilar sha’ni va qadr-qimmatini qadrlash — bularning barchasi ma’naviy mas’uliyatning yorqin ko‘rinishlaridir.

Kasbiy mas’uliyat – o‘z mutaxassisligi bo‘yicha yuqori malaka, halollik va fidoyilik bilan ishlash. Masalan, shifokor bemorni davolashda eng so‘nggi ilmiy yutuqlardan foydalanishi, o‘qituvchi esa o‘quvchilarni nafaqat bilim, balki tarbiya bilan ham qurollantirishi kasbiy mas’uliyatdir.

Jamiyat oldidagi mas’uliyat – ijtimoiy va madaniy rivojlanishga shaxsiy hissa qo‘shish. Masalan, ko‘ngillilik asosida daraxt ekish aksiyalarida qatnashish, mahallada yoshlarni sportga jalb etish yoki madaniy tadbirlar uyushtirish.

Xalq oldidagi mas’uliyat – milliy manfaatlarni himoya qilish va xalqning xalqaro maydondagi obro‘cini oshirishga xizmat qilish. Sportchilarimizning yirik musobaqalarda Vatan bayrog‘ini baland ko‘tarishi yoki olimlarimizning xalqaro ilmiy anjumanlarda yurtimiz sharafiga himoya qilishi bunga yorqin misoldir.

Oila oldidagi mas’uliyat – oilaning mustahkamligi, farzandlarning sog‘lom va barkamol bo‘lib voyaga yetishini ta’minlash. Masalan, ota-onaning farzandiga puxta bilim berishi, unga halol mehnat va mehr-muhabbatda ibrat ko‘rsatishi kelajak jamiyatining mustahkam asosini yaratadi.

Ota (yoki ona) mas’uliyat – oilaning iqtisodiy, ijtimoiy, tarbiyaviy, reproduktiv va kommunikativ vazifalarini to‘liq bajarishga qodir bo‘lish hamda bu jarayonni muntazam ravishda ta’minlash majburiyatidir. Bu mas’uliyat, eng avvalo, farzandlarning sog‘lom, bilimli va tarbiyali bo‘lib voyaga yetishiga qaratilgan bo‘lishi lozim. Masalan, farzand ta’limini qo‘llab-quvvatlash, sport

⁶Назаров Қ. Жаҳон фалсафаси қомуси. 1-китоб.-Тошкент: “Маънавият”, 2023. - Б.720.

⁷Мамадалиева Ф.А. Исломий кадриятларда шахс масъулияти муаммоси (PhD)...дис. –Т.,2020. –Б.72-74.

hamda madaniy mashg'ulotlarga jalb etish ota-ona zimmasidagi mas'uliyatning hayotiy ko'rinishlaridir.

Farzandlik mas'uliyati – ota-ona va oila oldidagi burchlarni anglash hamda ularga hurmat bilan yondashishdir. Masalan, farzandning oila ishlarida ota-onasiga yordam ko'rsatishi, ularni kasallik paytida parvarish qilishi hamda ijtimoiy muhitda hurmatga sazovor inson sifatida ko'rsatishga intilishi mas'uliyatning amaliy mazmunini anglatadi.

Ijtimoiy mas'uliyat — bu shaxsning o'z xatti-harakatlari va ularning oqibatlarini anglash, ularga baho berish va nazorat qilish qobiliyatidir. Bu nafaqat bajarilgan harakatlar, balki bajarilmagan, ammo bajarilishi lozim bo'lgan harakatlar uchun ham amal qiladi.

Dissertant tomonidan ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirish jarayoni doimiy qaror qabul qilish sifatida uchta asosiy parallelga asoslanishi, ijtimoiy mas'uliyat turli pozitsiyalardan – tashqi, ichki, individual va jamoaviy mas'uliyat sifatida tavsiflanishi, ular bir-biri bilan integratsiyalashgan holda yangi tushunchalarni, mazmun va tuzilishni, ijtimoiy mas'uliyat nuqtai nazaridan shakllantirishi va shaxsning turli darajalari, ijtimoiy guruhning mikrodarajasi, muayyan jamiyatning mezoni darajasi va makrodarajada namoyon bo'lishi mumkinligi to'g'risidagi fikrlar ochib berilgan.

Ijtimoiy mas'uliyat quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- aksiologik – muayyan jamiyatning qadriyatlari va an'analari me'yorlariga yo'naltirilgan;

- regulativ – axloqiy munosabatlar va ularni tartibga solish usullari ma'lum bir jamiyatda aks ettiriladi;

- transformativ – mavjud bilimlarni e'tiqodga, atrofdagi dunyoga, shaxsiy hayotga va o'zingizning jamiyatdagi o'rningizga qarashlar tizimiga aylantirishga hissa qo'shadi⁸.

Tadqiqot ishida shaxs kamolotida oilaning o'rni alohida ahamiyatga egaligi, ota-ona farzandining ma'naviy dunyosining yetarli darajada shakllanmaganligi yoki tarbiyadagi kamchiliklari uchun ma'naviy jihatdan javobgarligi, bu mas'uliyat mehnat va ijtimoiy faoliyatdagi mas'uliyat hissining poydevorini yaratishi haqidagi ma'lumotlar asoslab berilgan. Ilmiy sohada yosh, iqtidorli va malakali kadrlarning mavjudligini ta'minlash, xodimlarning bilim darajasini oshirish, ularning o'z qobiliyatlarini to'liq ro'yobga chiqarishda zarur sharoitlarni yaratish Yangi O'zbekistonda talabalarni jamiyat oldida mas'uliyatli bo'lishga undaydi. Ushbu model quyidagilarga asoslanadi:

Birinchidan, ta'lim qamrovini kengaytirish va sifatni oshirish – ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish, davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, hududlarda davlat va nodavlat ta'lim muassasalarini tashkil etish orqali raqobatbardosh ta'lim muhitini yaratish zarur;

Ikkinchidan, raqamli texnologiyalar va innovatsion metodlarni joriy etish, raqamli iqtisodiyot uchun yuqori malakali muhandis-texnik kadrlarni tayyorlash,

⁸Кочетова И.Д. Педагогические условия развития социальной ответственности у студентов высших учебных заведений. Дисс. на соискание ученой степени кандидата пед. наук... –Хабаровск. –С.56.

masofaviy ta'lim, "blended learning", "flipped classroom" kabi ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish, "Elektron universitet", "E-MINBAR" kabi raqamli platformalarni tatbiq etish orqali ta'lim jarayonini zamonaviylashtirish talab etiladi;

Uchinchidan, ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni kuchaytirish, texnoparklar, startap va akselerator markazlarini rivojlantirish, xalqaro ilmiy hamkorlikni kengaytirish yoshlarni ilm-fan va innovatsiyaga keng jalb etadi. Spin-off korxonalar orqali ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish, Scopus va boshqa xalqaro ilmiy bazalarda maqola chop etishni rag'batlantirish, iqtidorli yoshlarni "ustoz-shogird" tizimi asosida tayyorlash ularning nafaqat professional, balki jamiyat oldidagi ijtimoiy mas'uliyat hissini ham yuksaltiradi;

To'rtinchidan, ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy yo'nalish, talaba-yoshlarning ma'naviy-axloqiy ongini rivojlantirish ularning jamiyat oldidagi mas'uliyatni oshirishga xizmat qiladi;

Beshinchidan, kasbiy va ishlab chiqarish integratsiyasi — talaba-yoshlar uchun mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lish faqat nazariy bilim emas, balki real amaliy tajribani ham talab qiladi. "Karyera markazlari" orqali ishga joylashishga yordam berish esa ularning kelajak faoliyati uchun mas'uliyatli qarorlar qabul qilishga imkon yaratadi.

Dissertant mulohazalariga ko'ra, turli nazariy va metodologik yondashuvlar asosida o'rganilishi lozim bo'lgan muhim mavzu bu talaba-yoshlarning ijtimoiy mas'uliyatini oshirish masalasidir. Ushbu mavzuni tadqiq qilishda yoshlarda mas'uliyat hissini rivojlantirishning ijtimoiy asoslari, oila va ta'lim tizimining o'zaro ta'siri va metodologiyalarini birlashtirish orqali keng qamrovli yondashuv ishlab chiqish mumkin. Shaxsning jamiyat oldidagi majburiyatlarini anglash va ularni bajarish jarayonida o'zaro ishonch va hamkorlik mustahkamlanadi. Talaba-yoshlar ijtimoiy mas'uliyatini oshirish Vatanini sevuvchi, milliy manfaatlarni himoya qilishga tayyor, ijtimoiy masalalarga sezgir va jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shuvchi faol fuqaro sifatida tarbiyalashdir. Bu borada axloqiy qadriyatlarni singdirish, fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlash jamiyatni yuksaltirishga xizmat qiladi.

Dissertasiyaning ikkinchi bobi **"Talaba yoshlar ijtimoiy mas'uliyatni oshirishda Sharq va G'arb allomalari falsafiy qarashlaridan foydalanishning ahamiyati"** deb nomlanib, unda Sharq xalqlarining tarixi va madaniyati, ularning jamiyatda yosh avlodning mas'uliyatini qanday qabul qilishi va uni qanday qo'llab-quvvatlashi bilan chuqur bog'liqligi, Sharq mamlakatlarining falsafiy merosi va uning yoshlar mas'uliyati tushunchasiga ta'siri o'rganilgan. Shuningdek, Yevropa xalqlari hayotida yoshlar mas'uliyatga doir falsafiy qarashlar mohiyati ochib berilib, yoshlarda mas'uliyat hissini rivojlantirishining ijtimoiy-gnoseologik asoslari tadqiq etilgan.

Sharq falsafasida yoshlarni tarbiyalash va ularning jamiyatdagi rolini shakllantirish masalalariga alohida e'tibor berilib, bu milliy an'analar va qadriyatlarning davom etishiga asos yaratishi, unda yoshlarning mas'uliyati faqat shaxsiy yoki oilaviy darajada emas, balki kengroq jamiyatdagi o'zaro munosabatlar tizimida ham ko'rib chiqiladi.

Tadqiqotda Sharq mutafakkirlari, jumladan Al-Farobiy, Ibn Sino va G‘azzoliyning yoshlar ta’lim-tarbiyasining ahamiyati va ularning jamiyat oldidagi mas’uliyatning roli haqida asarlarida keltirilgan fikrlar, Konfutsiy jamiyat hayotida muhim bo‘lgan insonlarni “Oliy hikmatli inson” deya ta’riflagani, Imom al-Buxoriyning qarashlari “Al-adab al-Mufrad” nomli asarining ilk boblarida aks etganligi to‘g‘risida ma’lumotlar qiyoslangan. “Mas’uliyat” va “ijtimoiy mas’uliyat” tushunchalari G‘arb falsafasida o‘ziga xos tarzda shakllantirilgan bo‘lsa, Sharq falsafasida ular tamomila farq qiluvchi qarashlar orqali aks ettirilishi qayd etilgan. O‘z navbatida, har ikkala falsafa yo‘nalishlari ta’lim jarayonida bilimsiz yoshlarda komillik bo‘lmashligini, natijada ijtimoiy mas’uliyat ham to‘g‘ri shakllanmasligini, ijtimoiy mas’uliyatning maqsadi jamiyatda shaxsning o‘ziga xos xususiyatlari, ongliligi, tafakkuri va xulq-atvori namunasi uchun muayyan manba, poydevor sifatida qo‘llanilishi bilan bog‘liqligi asoslangan.

“Qobusnoma”da mas’uliyat tushunchasi inson hayotining har bir jabhasida asosiy o‘ringa egaligi ta’kidlanadi. O‘z hayotidagi harakatlar, oilada, ta’limda va davlat boshqaruvida mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish asarning asosiy mavzularidan biri hisoblanadi. Kaykovus farzand tarbiyasi, shohlikni boshqarish va ijtimoiy munosabatlarda mas’uliyatni ta’minlashni ta’lim va jamiyat rivojlanishining muhim poydevori sifatida ko‘radi. Alisher Navoiy ijodida mas’uliyat mavzusi markaziy o‘rinni egallab, u shaxsning o‘z oldidagi, jamiyat oldidagi, Alloh oldidagi mas’uliyatini chuqur yoritib, bu tushunchani turli badiiy obrazlar, pand-nasihatlar orqali ochib bergan.

Dissertant tomonidan jadid mutafakkirlariga alohida urg‘u berilgan bo‘lib, ulardan Abdulla Avloniyning “Turkiy Guliston yoxud axloq” asarida jamiyat va shaxs tarbiyasi, axloqli va bilimli shaxslar jamiyatning asosiy tayanchi bo‘lib, ular jamiyat oldida o‘z burchlarini bajarishlari⁹, Abdurauf Fitratning “Sayha” ya’ni “Na’ra” sherida milliy uyg‘onish va siyosiy islohotlar, ijtimoiy mas’uliyatni o‘z zimmasiga olib vatan uchun yashash kerakligi g‘oyalari, har bir millat o‘z madaniy va tarixiy merosini anglab yetishi lozim va milliy uyg‘onish ijtimoiy mas’uliyatni kuchaytirishi¹⁰ lozimligi haqida fikrlari bildirilgan.

Arastuning “Axloqi Kabir” asarida mas’uliyat tushunchasiga axloqiy fazilatlar, insoniy erkinlik va ongli tanlovlar kontekstida ta’rif berilib, uning axloqiy qarashlariga ko‘ra, mas’uliyat shaxsning axloqiy fazilatlarga ega bo‘lishi, ularni ongli ravishda amalda qo‘llashi va harakatlarining oqibatlari uchun javobgar bo‘lishi bilan bog‘liqligi qayd etilib, unda mas’uliyat tushunchasi axloqiy fazilatlar, erkin tanlov va adolat bilan uzviy bog‘liqligi ta’riflangan. Bundan tashqari, Tomas Gobbsning siyosiy va axloqiy qarashlari mas’uliyat, erkinlik, qonun va davlat tuzilmasi kabi mavzular atrofida shakllanganligi, Gobbsning “Leviatan” asarida davlatning shakllanishi, ijtimoiy shartnoma nazariyasi va inson tabiatiga oid fikrlari orqali mas’uliyat tushunchasi tahlili, Dekart falsafasining markazida esa shubha va bilimni asoslash jarayoni turishi, uning mashhur “*Cogito, ergo sum*” (Men o‘ylayapman, demak, men mavjudman) formulasi orqali Dekart insonning

⁹Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. -Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2004. –B.34.

¹⁰Ахмедова М.А. Фалсафа. –Тошкент: “Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти”, 2006. –Б.156-157.

aql-idroki va o'z mavjudligini anglashini asosiy nuqtaga qo'yishi o'z aksini topgan.

G'arb faylasufi I.Kantning ijtimoiy mas'uliyat tushunchasiga oid qarashlari muhim ahamiyatga ega bo'lib, uning axloqiy nazariyasi aql-idrokka asoslangan axloqiy printsiplar bilan bog'liq. Kantning mas'uliyat haqidagi tushunchasi, uning deontologik (majburiyatga asoslangan) axloqiy tizimida muhim o'rin tutadi. Kant insoniyatni axloqiy mavzu sifatida ko'rib, mas'uliyatni insonning burch va axloqiy tamoyillarga muvofiq yashash zarurati bilan bog'lashi, uning falsafasi axloqiy qonunlar, aql-idrok va insonning axloqiy burchlariga asoslanishi yoritilgan. Ogyust Kontning mas'uliyatga oid fikrlarini yanada chuqurroq o'rganish uchun quyidagi jihatlarni ko'rib chiqish mumkin. Kont individual mas'uliyatni kollektiv mas'uliyatdan ajratib ko'rsatmagan, Russoning asarlari orasida ayniqsa "Ijtimoiy shartnoma" (1762) va "Emil, yoki tarbiya haqida" (1762) kitoblari ijtimoiy mas'uliyat tushunchasini ilmiy asosda o'rganishga qaratilib, ijtimoiy mas'uliyat shaxs va jamiyat o'rtasidagi bog'liqlik doirasida belgilanadi.

Dissertant mulohazalariga ko'ra, XIX-XX asrlarda e'lon qilingan falsafiy ta'limotlarda mas'uliyat masalasi asosan axloqiy-ma'naviy hodisa sifatida ko'rib chiqilganligi, bu hol avvalo, chet mamlakatlardagi an'analar, shuningdek, ijtimoiy jarayonlar va hodisalar ma'nosi va mohiyatini anglashga qaratilgan falsafiy-diniy yondashuv bilan belgilanishi ta'kidlanadi. Ko'plab faylasuflar tomonidan mas'uliyatni davlat va jamiyat tomonidan himoyalangan aloqa sifatida ko'rib, o'zaro bog'liq tomonlarning huquq va erkinliklarini ta'minlashga xizmat qiluvchi tushuncha deb bilmoqdalar, davlat boshqaruvida mas'uliyat darajasini oshirish uchun tashkiliy, huquqiy va axloqiy chora-tadbirlar majmuasi zarur deb fikrlar yuritiladi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **"Yangi O'zbekistonda talaba yoshlar ma'suliyatini oshirishning o'ziga xos xususiyatlari"** deb nomlanib, unda Yangi O'zbekiston strategiyasi asosida ta'lim sohasidagi islohotlar jamiyatda talaba-yoshlarning ma'suliyatli bo'lishi, ularning kelajakdagi rivojlanishiga va jamiyatning barqarorligiga katta ta'sir ko'rsatishi, O'zbekistonda talaba-yoshlar ma'suliyatini oshirishning ijtimoiy va falsafiy asoslarini tahlil qilish orqali, ularning shaxsiy va kasbiy kamolotida muhim o'rin tutgan omillar ochib berilgan.

Dissertatsiyada O'zbekistonning madaniy va tarixiy konteksti hamda hozirgi zamon talablariga mos keladigan yangi pedagogik yondashuvlar taklif etiladi. O'zbekistonning hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sharoitida yosh avlodning ma'naviyatini yuksaltirish va ularning jamiyatdagi faolligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Prezident Sh.M.Mirziyoyevning talaba yoshlarning jamiyatimiz taraqqiyotidagi o'рни haqida fikri bayon qilingan: "Bizning asosiy maqsadimiz – O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri, ya'ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratish orqali ma'rifatli ziyolilarimizning yuksak orzularini ro'yobga chiqarishdir. Bilim, ta'lim va tarbiya endilikda Yangi O'zbekiston iqtisodiy-taraqqiyotining asosiy ustuniga aylanishi kerak¹¹". Yurtimizda olib borilayotgan

¹¹Mirziyoyev Sh. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. -Toshkent: "O'zbekiston", 2024. – B.126

islohotlar doirasida yoshlarga katta imkoniyat beruvchi bir qancha loyihalar, dasturlar va tashabbuslar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotchi tomonidan talaba-yoshlar hayoti va faoliyatida namoyon bo‘ladigan, ularning intellektual salohiyati va mehnatsevarlik qobiliyatini oshirishga xizmat qiladigan yondashuvlar jamiyatda mavjud muammolarni hal etishda ham muhim rol o‘ynashi, oliy ta’lim sohasida ijtimoiy mas’uliyatni oshirish har bir yosh kadrning sifat darajasini oshirishga yordam berishi, bu esa jamiyatda odob-axloq qoidalari buzilishining oldini olishi, bu jarayonlar, ayniqsa, jamiyat va uning erkinlashtirilgan tuzilishlarida muhim ahamiyat kasb etishi, chunki ziyolilar va talaba yoshlar ijtimoiy-siyosiy faoliyatda faol ishtirok etishi kutilishi haqida fikrlar bildirilgan.

